

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA "MIRANDA QOIDASI" INSTITUTINING MUSTAHKAMLANISHI

Malikova Samira Shavkatovna
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti
Davlat-huquqiy faoliyat yo'nalishi
1-bosqich A-potok 1-guruh
e-mail:samiramatikova@list.ru
Ilmiy rahbar: N.N Ramazonov

Annotatsiya. Maqlada qoidaning tarixi, ta'rifi va mazmuni haqida tushuncha berib o'tilgan. "Miranda qoidasi"ning xorijiy davlatlarda qo'llanilishi va O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga qo'shish asoslari va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Ushbu qoida jamiyat va davlatda qanday oqibatlarni bartaraf e'tilishi va uning xalqaro huquq prinsiplariga mos kelishiga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: "Miranda qoidasi", sukul saqlash huquqi.

STRENGTHENING OF THE INSTITUTION OF THE "MIRANDA RULE" IN THE CONSTITUTION OF THE NEW EDITION

Malikova Samira Shavkatovna
Tashkent state university of law
Public law faculty
The field of state-legal activity
1-course A-stream 1-group
e-mail:samiramatikova@list.ru
Research adviser: N.N.Ramazonov

Abstract. The article provides an insight into the history, definition and content of the rule. The "Miranda rule" will be used in foreign countries and the basis and significance of its inclusion in the new constitution of the Republic of Uzbekistan. The provision addresses the consequences of society and the state and its compliance with the principles of international law.

Key words: "Miranda rule", right to silence.

УКРЕПЛЕНИЕ ИНСТИТУТА "ПРАВИЛО МИРАНДЫ" В НОВОЙ КОНСТИТУЦИИ

Маликова Самира Шавкатовна
Ташкентский государственный юридический университет
Факультет публичного права
Направление государство-правовой деятельности
1-курс А-поток 1-группа
e-mail:samiramatikova@list.ru
Научный консультант: Н.Н Рамазонов

Аннотация. В статье дается представление об истории, определении и содержании этого правила. Использование "Правило Миранды" в зарубежных странах, а также основа и значение его включения в новую конституцию Республики Узбекистан. Это положение касается последствий для общества и государства и их соответствия принципам международного права.

Ключевые слова: "Правило Миранды", право хранить молчание.

Hollywood filmlari tufayli ko‘pchiligidan ma’lumki, politsiya gumonlanuvchi odamni hibsga olish vaqtida shunday iborani ishlatadi: «Sizning sukut saqlash huquqingiz bor». Aytganlarining hammasi sudda o‘zingizga qarshi ishlatilishi mumkin. So‘roq jarayonida advokatingiz ham qatnashishi mumkin. Agar advokat xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmashangiz, davlat tomonidan advokat bilan ta’minlanasiz. Huquqlaringizni tushundingizmi?». Filmlardagi mazkur epizod Amerika Qo‘shma Shtatlarning ijtimoiy va huquqiy hayotidagi qonuniy talab – “Miranda qoidasi”ni ko‘rsatib beradi.

Miranda qoidasining mazmuni nimadan iboratligiga to’xtalib o’tsak,— AQSHdagi qonuniy talablardan biri hisoblanadi. Biroq, filmlardagidan farqli ravishda, huquqlar gumonlanuvchi hibsga olinayotganda emas, so‘roqdan oldin o‘qiladigan, gumonlanuvchiga uning huquqlari haqida ma’lumot berilishi lozim bo‘lgan majburiy qoidadir.

Odil sudlovga oid xalqaro standartlar mustahkamlab qo‘yilgan xalqaro ana shu shartnomasi va bitimlar amaliyotda “Miranda qoidasi”, “Bangalor printsiplari”, “Sudyalar mavqeい to‘g‘risida Yevropa xartiyasi”, “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro bill”, “Milan qoidalari”, “Yuvenal yustitsiya”, “Karakas deklaratsiyasi”, “Pekin qoidalari”, “Ar-Riyod prinsiplari”, “Bangkok deklaratsiyasi”, “Vena deklaratsiyasi”, “Insoniylik mezonlari” kabi muxtasar shakldagi nomlar bilan yuritiladi.

Bu mashhur iboraning tarixi Ernest Arturo Miranda ismli AQSH fuqarosining nomi bilan bog‘liq. Miranda 1941 yil 9 martda Arizona shtatining Mesa shahrida tug‘ilgan ispaniyalik retsidivist. O‘z vaqtida uni ota-onasi va o‘qituvchilari «tarbiyasi qiyin bola» deb ta’riflagan. Sakkizinchisinfda u kichik jinoyat sodir etgan va to‘qqizinchisinfda o‘g‘irlik uchun hibsga olingan va bir yil davomida Arizona shtatidagi o‘g‘il bolalar sanoat maktabiga joylashtirilgan. Ozodlikka chiqqanidan keyin u bir oy o‘tib yana yangi jinoyatga qo‘l urgan.¹

Mana shunday hayot tarziga ega bo‘lgan Miranda 1966 yili jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib, hibsga olingan va so‘roq qilinishdan oldin uning gumondor sifatidagi huquqlari o‘qib eshittirilmagan.

Miranda o‘z huquqlarini bilmagan holda so‘roq jarayonida qo‘yilayotgan ayblovlarga iqrarlik ko‘rsatmasini bergen va sudda ushbu ko‘rsatmadan isbot sifatida foydalanilgan. Buni noqonuniy ekanini Alvin Mur ismli 73 yoshli advokat aniqlab, sud jarayonida u himoyasidagi shaxsning huquqlari tushuntirilmagan, shu sababdan, aybiga iqrarlik ko‘rsatmasi va qonunbuzarliklar bilan olingan boshqa dalillar sud

¹Эрнесто Миранда

[“https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D0%B8%D1%80%D0%B0%D0%BD%D0%B4%D0%BD%D0%AD%D1%80%D0%BD%D0%B5%D1%81%D1%82%D0%BE”](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D0%B8%D1%80%D0%B0%D0%BD%D0%B4%D0%BD%D0%AD%D1%80%D0%BD%D0%B5%D1%81%D1%82%D0%BE)

ishdan olib tashlanishi kerakligini ta'kidlagan. Garchi birinchi instansiya sudi advokat Murning dalillariga ishonmagan bo'lsada, keyinchalik 1966 yil 13 iyunda AQSH Oliy sudi Mirandaning huquqlari buzilgan, deb topgan va undan iqrorlikni olib tashlagan holda ishni qayta ko'rib chiqishga qaror qilgan. Shundan so'ng Amerika politsiyasida so'roqdan oldin hibsga olinganlarning huquqlarini o'qishi to'g'risida majburiy tartib joriy qilinib, mazkur qoida «Miranda qoidasi» sifatida atala boshlangan.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda «Miranda qoidasi» inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar hamda ko'plab davlatlar konstitutsiyasi va qonunlariga umume'tirof etilgan norma sifatida kirib borgan. Masalan, Fransiya qonunchiligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan hibsga olinib so'roq qilinayotgan shaxsga olishning maksimal muddati, qarindoshlari yoki ish beruvchini hibsga olingani haqida xabardor qilish huquqi, tibbiy ko'rikdan o'tish va yuridik maslahat olish huquqi haqida ma'lumot berilishi zarur.

Avstraliyada «Miranda qoidasi» mahalliy tilda «Jim turish huquqi» deb ham ataladi va unga ko'ra gumonlanuvchiga so'roqdan avval “Agar xohlamasangiz, biror harakat qilishingiz yoki aytishingiz shart emas. Har qanday so'zlarizingiz yoki harakatlaringiz dalil sifatida ishlatalishi mumkin”, deya ma'lumot beriladi va undan “Hamma narsani tushundingizmi?” deb so'raladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, odatda ayblanuvchilarning atigi 4-9 foizi sukut saqlash huquqidan foydalanadi.

Rossiya Federatsiyasida agar shaxs gumon qilinuvchi sifatida jalb qilingan bo'lsa, u bu haqda yozma ravishda xabardor qilinishi va xabarnomada ushbu shaxs gumon qilinayotgan aniq jinoyatning tavsifi bo'lishi hamda xabarnoma topshirayotganda tergovchi gumon qilinuvchiga uning ushbu moddada ko'rsatilgan huquqlarini tushuntirishi shart. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 46-moddasiga ko'ra gumonlanuvchida advokatga bo'lgan huquqni va guvohlik berishni rad yetish huquqi mavjud. Mazkur huquqiy me'yorlarni ma'lum darajada «Miranda qoidasi»ning muqobili, deb hisoblash mumkin bo'lsada amalda, gumonlanuvchiga huquqlari bo'yicha tushuncha berish so'roq bayonnomasini imzolash vaqtiga to'g'ri keladi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz huquq tizimida ham «Miranda qoidasi» rioxaga etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasida sukut saqlash huquqi belgilangan. Mazkur moddaga muvofiq, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas. Boshqacha aytganda, «Miranda qoidasi» qonunchiligidan sukut saqlash yoki hech qanday ko'rsatma bermaslik huquqi shaklida o'z ifodasini topgan.

Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasidan tashqari, 46- va 48-moddalarida ham shaxs o'ziga qo'yilgan ayblov yo gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatmalar berish yoxud ko'rsatmalar berishdan bosh tortishga haqli ekani belgilab qo'yilgan. Shuningdek, mazkur moddalar bo'yicha gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi ko'rsatmalaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish huquqiga ham ega.

Mamlakatimizda ham xuddi «Miranda qoidasi»dagidek gumonlanuvchi o'z advokati bilan bog'lanishi yoki advokat yollashga imkoniyati bo'lmasa, davlat tomonidan advokat tayinlanishi huquqidan foydalanishi mumkin.

Shu o'rinda milliy qonunchiligidan mohiyatan «Miranda qoidasi» mavjud bo'lsa, nima uchun Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan o'tkazilgan yig'ilishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Konstitutsiyamizga «Miranda qoidasi» kiritish taklifi ilgari surildi? degan savol bo'lishi tabiiy.

Mazkur savolga qisqacha javob beradigan bo'lsak, «Miranda qoidasi» amaldagi milliy qonunchiligidan to'la aks etgan, lekin, uning mazmuni Jinoyat-protsessual kodeksi moddalariga orasida «sochib» yuborilgan. Mazkur qoida birinchi navbatda inson huquqiga daxldorligi uchun ham u yaxlit holda hamda konstitutsiyaviy darajaga ega bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuning uchun ham, 2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tgan referendum natijasida, 1-may kuni kuchga kirgan Konstitutsianing 28-moddasida quyidagicha ta'kidlanib o'tilgan:

“Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligii isbotlashi shart emas va istalgan vaqtida sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin”²

Jamiyatda «Miranda qoidasi»ni konstitutsiyaviy darajada belgilanishi birinchi navbatda fuqarolarni mazkur qoidadan xabardor bo'lish imkoniyati kengaytirishi barobarida, amaliyotda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlariga ikki karra mas'uliyat yuklaydi. Mazkur yo'nalishdagi huquqiy islohotlarning barchasi ijtimoiy hayotda inson qadri, xalq manfaatlarini amalda ta'minlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi.³

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D0%B8%D1%80%D0%B0%D0%BD%D0%B4%D0%B0_%D0%AD%D1%80%D0%BD%D0%B5%D1%81%D1%82%D0%BE
3. Mamatkulov Davlatjon Maxamatjonovich- “Miranda qoidasi”: tarixi, mazmuni va uni konstitutsiyamizga kiritilish zarurati

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-30.04.2023

³ Mamatkulov Davlatjon Maxamatjonovich- “Miranda qoidasi”: tarixi, mazmuni va uni konstitutsiyamizga kiritilish zarurati